

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Qodirov	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
M.Hamidjonov, N.Shodilbekov	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
B.Qurbonova	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish.....	107
D.Xakimova	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi.....	111
B.Umarov	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	114
Sh.Ro'zaliyev	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi.....	118
F.Yuldashev	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati.....	123
A.Rajabov	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
Z.Xamraqulov	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
S.O.Omonova	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki.....	138
A.T.Tuychiyev	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.....	142
N.E.G'olibjon	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	149
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari.....	154

IQTISODIYOT

M.Adxamov	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
A.A.Oripov	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash.....	161

FALSAFA

M.Qaxxarova, M.Raximshikova	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi.....	169
A.Sufiyev	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari.....	175
B.G'aniyev	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....	181
S.Yuldashev	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari.....	186
Sh.Usanov, E.Avazov	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni.....	190
M.Choriyeva	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
K.Saydazimov	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar.....	199
A.Mo'ydinov	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati.....	204

MA'RIFATLI JAMIYATNI QURISH VA MA'RIFATLI INSON SENSUALISTIK QARASHINING MOHIYATI**ПОСТРОЕНИЕ ПРОСВЕЩЕННОГО ОБЩЕСТВА И СУТЬ ЧУВСТВЕННОГО ОТНОШЕНИЯ ПРОСВЕЩЕННОГО ЧЕЛОВЕКА****BUILDING AN ENLIGHTENED SOCIETY AND THE ESSENCE OF THE SENSUALISTIC ATTITUDE OF AN ENLIGHTENED PERSON****Mo'ydinov Aslbek¹****¹Mo'ydinov Aslbek**

– Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ma'rifatli jamiyat qurish ma'rifatli insonni tarbiyalash asosi ekanligi tadqiq etilgan. Ma'rifatli jamiyat shakllanishi ma'rifatparvarlikni shakllashtirish zarurati bilan bog'liqligi ochib berilgan. Ta'lim-tarbiya va ma'rifatli jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, sahovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undashi ma'rifatli jamiyat qurishni har qanday jamiyat hohlashligi o'rganilgan.

Аннотация

В данной статье исследуется, что построение просвещенного общества является основой воспитания просвещенного человека. Выявлено, что формирование просвещенного общества связано с необходимостью формирования просвещения. Изучено, что образование является одним из основных факторов стабильности просвещенного общества.

Abstract

In this article, it is researched that building an enlightened society is the basis of educating an enlightened person. It is revealed that the formation of an enlightened society is connected with the need for the formation of enlightenment. It has been studied that education is one of the main factors of the stability of an enlightened society.

Kalit so'zlar. *Ma'rifat, ma'rifatli jamiyat, sensualizm, inson sensualizmi, ma'naviy tarbiya, strategiya, ma'rifatli jamiyat qurish, jadidlar, ma'naviyat, ma'naviy o'zgarishlar, jamiyat.*

Ключевые слова: *Просвещение, просвещенное общество, сенсуализм, чувственность человека, духовное образование, стратегия, построение просвещенного общества, современность, духовность, духовные изменения, общество.*

Key words: *Enlightenment, enlightened society, sensualism, human sensualism, spiritual education, strategy, building an enlightened society, modernity, spirituality, spiritual changes, society.*

KIRISH

Sensualizmni Epikur ishlab chiqqan degan qarash sifatida e'tirof etilsa, u qarash "Har bir tuyg'uni haqiqat deb tan olishdan iborat bo'lgan mo'tadilroq sensualizm idrokni aniqlash jarayonida ongda paydo bo'ladigan jarayon"dir. Shuningdek, Aristotelga fikricha sensualizm "Ongdagi sezgilarda va ularda paydo bo'lishi kutilayotgan narsa"[1.98.]. Bunda dialektik materializm bilish nazariyasida sezgilarni inson hayotidagi o'rnini yuksak baholaydi. Ammo o'sha davr nuqtai nazaridan sensualizm tafakkur individualistik edi. Chunki gnoseologiklarning aksariyatida bilim predmeti jamiyatda emas, balki shaxs mavjud bo'ladi, degan qarashga asoslanilgan. Ta'kidlash lozimki, bunda insonning ongi odatdagi ijtimoiylikdan tashqarida deb hisoblanganligini ko'rishimiz mumkin. Bizningcha, jamiyatdagi qaloqlikni bartaraf etish bilish va uning jamiyatda amaliyoti rolini ochib beradi. Shunga ko'ra, inson borlig'i voqeligini uning bevosita, hissiy ifodasida nazariy va axloqiy jihatdan tasdiqlaydigan ma'rifatga ehtiyoj borligini bildiradi. Bu axloqning sensatsion tushunchalarida amalga oshirildi, uning asosiy prinsipi to'g'ridan-to'g'ri, hissiy, tirik shaxs o'z baxtiga, uning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga da'vo qiladi. Ularda shaxslarning ijtimoiy munosabatlari foydalilik, o'zaro manfaatdorlik munosabatlari sifatida tasvirlangan. Umuman olganda, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-falsafiy munosabatlarni ifodalaydigan sensualistik qarash inson bilim saviyasini to'liq rivojlanishi sifatida belgilash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bu borada "Biz Yangi O'zbekistonni yuksak madaniyat va ma'naviyatga ega bo'lgan, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz"– deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zLiDeP sezdidida. – Shu munosabat bilan "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" kontseptsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi.

FALSAFA

Bu avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi.

O'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini kuchaytirish zarur.

Bunda, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – bizning oliy maqsadimizdir"[2.].

Shu o'rinda jamiyat taraqqiyotida ma'rifatli inson sensualistik qarashlarining mohiyati haqida Abu Rayhon Beruniyning "Jamiyatning har bir ongli a'zosi o'z kasb-kori va ixtisosidan qat'iy nazar, jamiyat to'g'risidagi bilimlarni chuqur egallash orqaligina tevarak-atrofdan ro'y berayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini bilish, ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi", degan qarashi o'rindir. Shuningdek, uning "Jamiyat to'g'risidagi bilimlarga barcha xalqlarga xos ijtimoiy-siyosiy va axloqiy hodisalarning umumiy asosini aniqlashga, ya'ni ijtimoiy-siyosiy hayot barqarorligining fundamental asoslarini belgilashga, jamiyatni yaxlit holda saqlab qolishga imkon beradi"[3.39.], deb ta'kidlaydi.

Jamiyat taraqqiyotida ma'rifatli inson sensualistik qarashlarining ilmiy-nazariy asoslari shakllanishi uchinchi Renessans poydevoriga zamin yaratadi. "Ma'rifatli jamiyat umummilliy maqsad, jamiyat manfaatlari va shaxs manfaatini uyg'unlashtirish, inson qadrini ulug'lash, tafakkur erkinligi va g'oyalar rang-barangligi, mas'uliyat, tolerantlik, qonun ustuvorligi va yuksak siyosiy madaniyat asosida shakllanadi"[4.]. Bu esa ma'rifatli jamiyat ijtimoiy va siyosiy jihatdan davlat boshqaruvi hamda uni takomillashuviga muhim ekanligini anglatadi.

Tadqiqotchilar fikricha, "Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlarida insonning qiyofasi tabiat ta'sirining natijasi ekani, uning ichki qiyofasida cheksiz sa'y-harakatlar natijasida tub o'zgarishlar bo'lishi mumkinligi aytiladi. Har bir inson o'z xulq-atvorining egasidir. Jamiyat bosqichma-bosqich o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Beruniyning jamiyatda adolatli bo'lish, inson uchun qayg'urish, jamiyatni aql, ilm, adolat, qonunlar, o'rnatilgan tartiblar bilan boshqarish kerakligi haqidagi falsafiy tahlili o'sha davrda fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanganidan dalolat beradi" [5.], deb ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiy qarashlarida jamiyat taraqqiyotida insonning o'rni haqidagi qarashida jumladan, shunday deydi, "Insoniy vujudan maqsad – eng oliy-saodatga erishuvdir; avvalo u baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga olib boradigan ish-amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So'ngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmogi lozim bo'ladi" [6.290.]. Bu esa odamlarni qobiliyatiga, avvalo aqliy iqtidoriga va ilmni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmasiga qarab jamiyatga baho berish mumkin degan qarashni ilgari suradi.

Ma'rifatli jamiyat g'oyasiga K.Poppening ochiq jamiyat tushunchasi yaqin bo'lib u quyidagicha, "Mening atamalarim ratsionalistik tafovutga asoslanadi: yopiq jamiyat sehrli tabularning mavjudligiga ishonish bilan tavsiflanadi, ochiq jamiyat esa, mening fikrimcha, odamlar (ko'p darajada) mavjud bo'lgan jamiyatdir. tabularga tanqidiy munosabatda bo'lishni va o'z qarorlarini birgalikda muhokama qilish va o'z aql-idroki imkoniyatlariga asoslashni o'rgandilar"[7.215.]. Bizningcha, Popper jamiyatni ma'rifatli bo'lishini nazarda tutgan, chunki ochiq jamiyat bilimga asoslanadi.

Shu o'rinda ma'rifatni fikrning mustaqilligi va uni noto'g'ri qarashlardan ozod qilish istagi sifatida tushunish mumkin. Ma'rifat tushunchasini faylasuf Dekart va Bekon tomonidan dasturli ravishda aniqlangan, to'g'ridan-to'g'ri Kant nomi bilan atalgan. Ingliz tilida "ma'rifat" (enlightenment) so'zi aynan "ma'rifat davri" ma'nosida qo'llaniladi. Rus tilida "ma'rifat davri" ma'nosidan tashqari ma'rifat bilim va ta'limni tarqatishni ham anglatadi[8.]. Buning natijasida uzluksiz ta'lim muassasalariga xos bo'lgan ta'lim-tarbiya shakli ma'nosida, shuningdek, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va bilimdir. Zero, fikrlashning o'ziga xosligi va mustaqilligi jamiyat ma'rifatlilik darajasini ifodalaydi. Demak, yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, inson sensualistik qarashlarida ma'rifat yetakchi o'rinni egallaydi. Buning uchun ta'lim tizimi uzluksizligi ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashini shakllanishi ta'lim bilan amalga oshirilgan ekan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Ya'ni, "Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz.

“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.

Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so’zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o’qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo’ladi”[9].

Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog’lig’i joyida bo’lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo’lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo’ldan aslo to’xtamaymiz.

“Ma’rifatning ahamiyati millat, jamiyat tarbiyasida bemsizdir. Uni amalga oshirish, asosan, ziyolilar, birinchi navbatda, olim-u muallimlar, shoir-u san’atkorlar zimmasidadir. Agar millat haq-huquqini yo’qotgan, asriy ilm-u ma’rifatidan uzoqlashtirilgan, o’zligini unutayotgan bir holda tushib, jamiyat ma’naviyatidan mahrum darajaga yetgan bo’lsa, ziyoli zimmasidagi ish o’n, balki yuz karra og’irroqdir”[10.27.].

XULOSA

Jamiyat taraqqiyotida ma’rifatli insonni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini quyidagilar bilan belgilash mumkin.

Birinchidan, Yangi O’zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirish omillarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o’rganish dolzarb hisoblanadi. Bunda avvalo, aholi orasida ma’rifiy tadbirlarni ilmiy-madaniy meros va milliy qadriyatlarni uyg’un holda o’rganish tashkil etadi. Chunki, inson ongi va tafakkurida ro’y bergan ma’naviy o’zgarishlar ijtimoiylashuvga sabab bo’ladi.

Ikkinchidan esa ma’rifatli jamiyat shakllanishining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o’rganish bo’yicha olib borilayotgan falsafiy tadqiqotlar tizimining eng muhim jihati hisoblanadi. Dunyoning raqobatbardosh mamlakatlari safiga kirishning bir talabi – bu ma’rifatli jamiyat qurish hisoblanadi.

Uchinchidan, har qanday jamiyatni rivojlanishi ma’naviyatli va ma’rifatli shaxslarni yetishtirish orqali mamlakat iqtisodiyotini hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va samaradorlikka olib keladi. Bu boradagi tadqiqotlarning o’rganish jamiyat taraqqiyotiga ijobiy xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Filofofskiy entsiklopedicheskiy slovar. Moskva.: Gl. redaksiya: L.F. Ilichyov, P.N. Fedoseyev, S.M. Kovalyov, V.G. Panov. 1983.
2. “Yangi O’zbekiston-ma’rifatli jamiyat” kontseptsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi. 2021. 9 Sentyabr. <https://xs.uz/uzkr/post/yangi-ozbekiston-marifatli-zhamiyat-kontseptsiyasi-va-uni-amalga-oshirish-millij-dasturi-ishlab-chiqiladi>
3. Buyuk siymolar, allomalar: (O’rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). K.1. – /Nashrga tayyorlovchi M.M. Xayrullayev. – Toshkent.: Ma’naviyat, 1995. – B 39.
4. Erkayev A. Ma’rifatli jamiyat uchinchi Renessans poydevorini yaratishda tayanch bo’ladi. Xalq so’zi gazetasi. 2022 yil 19 may, №103 (8165)
5. Xandamova M. Samarqand davlat chet tillar instituti Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent. Abu Rayhon Beruniyning Ma’rifatli jamiyat haqidagi qarashlari. 12/10/2022. <https://www.bukhari.uz/?p=24638>
6. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. Yangi asr avlodi. Toshkent. 2016. – 290 B.
7. Popper K. R. Otkritoye obshchestvo i yego vragi. T.1: Chari Platona / per. s angl. pod red. V. N. Sadovskogo. - Moskva.: Feniks, 1992.
8. Grekov M. A. K prosveshennomu obshestvu. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-prosveshennomu-obschestvu>
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>
10. Jadidlar. Abdulla Avloniy. Risola./ Toshkent. “Yoshlar nashriyot uyi”. 2022.
11. Мўйдинов, А. (2021). ЁШЛАРНИ ТУРЛИ ТАХДИДЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШДА АЖДОДЛАР МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 132-137.
12. Asilbek, M. (2022). SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF EDUCATION OF AN ENLIGHTENED PERSON IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Conferencea*, 183-186.
13. Yuldashev, S. U. (2019). THE ROLE OF SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES IN SOCIETY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 187-192.
14. Yuldashev, S. U. (2019). The role of the function of stabilization and development of society in scientific management (as socio-cultural technology). *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 255-259.
15. Yuldashev, S. U. (2019). TECHNOLOGY OF SOCIAL AND CULTURAL PROJECTION IN SCIENTIFIC MANAGEMENT OF SOCIETY. *Theoretical & Applied Science*, (11), 621-623.